

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.A.Abduvaliyev Farg'ona vodiysi hududida uy parrandalari gelmintlarining o'rganilishi bilan bog'liq ma'lumotlar	648
M.R.Xolikulov, S.B.Xatamova Farg'ona shahar tabiiy yer osti buloq suvlarining gidroekologik holati.....	652
M.X.Akbarova, M.A.Davidov, Z.N.Jo'rayev Farg'ona vodiysi florasida tarqalgan <i>Scutellaria</i> turkumi turlarining hayotiy shakllari tahlili	657
T.Rahimova, M.X.Akbarova, S.Usmonov, O.A.Turdiboyev Pyatayeva Anna Danilovna (1906 – 1981)	662
M.X.Akbarova, O.Turdiboyev <i>Scutellaria glabrata</i> (Lamiaceae) lektotipifikatsiyasi	667
M.X.Akbarova, Turdiboyev, R.Y.Ruzimatov, M.R.Xolikulov Xamidov G'ulom Xamidovich (1936–2024)	670
M.A.Davidov, R.E.Soibnazarov Bo'yoqbop drok-(<i>Genista tinctoria</i>) o'simligini ayrim bioekologik xususiyatlari	674
G.N.Shokirova Agrotexnik usullar samaradorligini aniqlash	677
I.P.Уринбоев, Ф.Р.Жумабоева Опыление и плодоношение цветков вида липа (<i>Tilia tomentosa</i>), интродуцированного в ферганскую урбанофлору.....	682
M.A.Давидов, И.Р.Уринбоев Опыление и цветение видов липы во флоре города Ферганы.....	686
M.A.Masodiqova Eribidae oilasi vakillari va ularning zararkunandalik darajasi	689
M.A.Masodiqova Eribidae oilasi (<i>Limantria dispar</i>) turining toksonomiyasiga oid o'zgarishlar va zararkunandalik darajasi	692
V.Mahmudov, B.Y.Hamraliyev Shohimardonsoy havzasining noyob dorivor o'simliklari, ularni muhofaza qilish.....	695
M.Q.Asadova Poliploidiya va uning boshqoli o'simliklar seleksiyasidagi ahamiyati	698
M.M.Mamajonova, V.Mahmudov Farg'ona viloyati sharoitida dorivor <i>Cassia angustifolia</i> L o'simligining introduksiyasi va istiqbollari	701
S.M.Xaydarov, F.N.Mingboyev Akvakultura uchun ankistrodesmus mikrosubo'tini Chu-13 ozuqa muhitida biomassasini orttirish	703
S.M.Xaydarov, B.E.Nishonov, F.N.Mingboyev Baliqchilikda muxim ahamiyatga ega bo'lgan <i>Daphnia magna</i> biomassasini oshirishda mikrofitlardan foydalanish	706
Z.A.Yusupova Yozyovon cho'llari davlat tabiat yodgorligi florasini	709
Z.A.Yusupova, F.B.Sayramov Mavrak turlarining xalq tabobatida hamda tibbiyotda qo'llanilishi.....	712
Z.A.Yusupova O'zbekistonda uchraydigan Lamiaceae turlarining dorivor salohiyati va bioekologik xususiyatlari	717
M.P.Yuldashova Farg'ona vodiysi kanallari algoflorasining taksonomik tahlili (JFMK, SHFMK, KFMK lari misolida)	721
M.K.Asadova Нектарозапас медпродуктивных угодий южных областей Узбекистана и некоторые теоретические основы их использования	726
V.Mahmudov, M.K.Jabbaraliyeva Био-экологические свойства лекарственных растений ферганской долины применяющие при заболевании бесплодия	729



UO'K: 502.75

YOZYOVON CHO'LLARI DAVLAT TABIAT YODGORLIGI FLORASI

ФЛОРА ГОСУДАРСТВЕННОГО ПАМЯТНИКА ПРИРОДЫ ЯЗЬВАНСКАЯ ПУСТЫНЯ

FLORA OF YOZYOVON DESERT STATE NATURAL MONUMENT

Yusupova Zoxidaxon Abdumalikovna 

Farg'ona davlat universiteti Botanika, biotexnologiya va ekologiya kafedrasida dotsenti

Аннотация

Мазкур мақолада Ёзёвон чўли давлат табиат ёдгорлиги ҳудудига ўсимликлар оламини ўрганиш мақсадида олиб борилган кузатишлар, ўтказилган мониторинглар ҳулосалари ёритилади.

Аннотация

В этой статье рассматриваются наблюдения для изучения растений природного памятника Языванских пустынь, основное внимание уделяется мониторинг отчетов.

Abstract

This article examines observations for studying the plants of the natural monument of the Yazyavansky deserts, the main focus is on monitoring reports.

Kalit so'zlar: табиат ёдгорлиги, эфемероидлар, қум тепаликлар, биотоп, эдификатор, индикатор, эндемик турлар.

Ключевые слова: природный памятник, эфемероиды, песчаные холмы, биотоп, эдификатор, индикатор, эндемичные виды

Key words: natural monument, ephemeroids, sand hills, biotope, edifier, indicator, endemic species

KIRISH

Ma'lumki, o'simliklar olamining qanchalik xilma xil bo'lishi, ular usayotgan xududning iqlimi va tuproq sharoitiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Yozyovon cho'lidagi Davlat Tabiat Yodgorligi xududida olib borilgan kuzatishlar, o'tkazilgan monitoringlar, aholidan olingan ma'lumotlar, manbalar tahlili va ularni ilmiy ishlash natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, bundan 60-70 yillar (100 yillar) oldin Yozyovon qumli cho'llari joylashgan hududlardagi tabiiy landshaftlar egallagan maydonlar bir necha barobar katta bo'lgan, qumlar orasida esa katta maydonlarda tekisliklar bo'lgan, sho'rxok yerlar, qum tepaliklar, ko'llar ham ko'p katta maydonlarni ishg'ol qilgan. Ko'llarda qamish, qo'g'a (lox), yakan, g'ijjak, suv qalampiri kabi o'simliklar, to'qaylarda esa, tok, turang'il, jiyda, chakanda kabi daraxt va butalar, o't o'simliklardan sho'rajriq, yaltibosh, qamish, ajriq, shirinmiya, yantoq, sho'ra, shuvoq, satragal kabi o'simliklar ko'p o'sgan, ular mahalliy aholining barcha talablarini, shu jumladan chorva mollarini yil davomida boqish va qishga em-xashak tayyorlash uchun etarli bo'lgan. Bulardan tashqari g'arbdan-sharqqa, sharqdan –g'arbgga chorva mollarini sotish uchun olib boruvchi, olib keluvchi savdogarlarni vaqtinchacha chorva mollarini bu yerlarda dam oldirishlari va boqishlari uchun yaylov sifatida ham xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qumlarda tarqalgan o'simliklar-saksovul, qandim, cherkez, quyonsuyak, oq jangal, yantoq, astragal efemer va efemeroidlar turli darajada sho'rlashgan yerlarda ko'plab o'sgan o'simliklar ham o'tin, ipak qurtiga dasta va chorva mollari uchun yaylov sifatida xizmat qilgan. Cho'l o'simliklaridan bu xilda tartibsiz yil davomida foydalanish, landshaft hosil qiluvchi o'simliklarning zahiralari kekin kamayib borishiga olib kelgan. Ayniqsa foydali xom ashyo o'simliklardan turli maqsadlarda ko'r-korona muntazam ravishda foydalanish ularning tur soni jihatdan ham, maydon jihatdan ham qisqapib borishiga, oqibatda noyob va kamyob o'simliklar safiga qo'shilib qolishga olib kelgan [3]. Qush jiyda, turong'il, kumush jangal, shirinmiya, qandimning endemik turlari, saksovul, qo'yon suyak, actragal, oq jangal kabi turkum turlari shular jumlasidandir [4].

Tabiiy biotoplarning bir qismi hozirgi kunga kelib ekin maydonlariga aylandi. Ular o'sgan va hosil qilgan biotoplar o'z o'rnini madaniy biotoplarga bo'shatib berdi, tabiiy biotoplarni faqat nomigina saqlanib qoldi [1,2,3].

Ma'lumki qumi tepaliklar qurg'oqchilik sharoitida yashashga moslashgan o'simliklar uchun yashash sharoiti hisoblanib, o'simliklar qumliarni mustahkamlash va hayvonlarni ozuqa bilan ta'minlaydigan manba sifatida xizmat qiladi. Shu'ning uchun qumliarni saqlash, o'simliklarni muhofaza qilish imkoniyatini bersa, o'simliklar bilan qoplangan qumliklar hayvonot dunyosini saqlash, ko'paytirish va muhofaza qilish imkoniyatini yaratadi. Ularning har biri o'zaro bir-birlari bilan chambarchas bog'langan. Shu'ning uchun ham yodgorlik xududidagi qumliarda va yerlarda tapqalgan o'simlik va hayvonot dunyosini saqlab qolish va muhofaza qilish, ilmiy asoslangan reja asosida olib borilishi lozim. Shu'ndagina o'simlik va hayvonot dunyosi, ular yaratgan va yaratayotgan boyliklarni kelgusi avlodga etkazish imkonini beradi. By boyliklarni saqlash, muhofaza qilish uchun esa ularni har tomonlama o'rganish talab qilinadi. Ular haqida to'liq va aniq ilmiy bilimga ega bo'lmay turib, ularni saqlash va muhofaza qilish, reja asosida samarali foydalanish haqida gap yuritish ham mumkin emas. Shu'ning uchun ham yodgorlik xududiida tapqalgan o'simliklarning flora tapkibi, noyob va landshaft hosil qiluvchi, xalq xo'jaligida ma'lum ahamiyat kasb etuvchi o'simlik turlarini o'rganish shu kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolgan edi. Yodgorlik xududiida tapqalgan o'simliklarni har tomonlama o'rganish bo'yicha monitoring qilingan. Monitoring o'tkazish davri asosan o'simliklarning o'sish jarayonini o'z ichiga qamrab olgan. Y noyabr, mart, aprel oylarida o'tkazildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Olib borilgan izlanishlar, monitoringlar o'tkazish va to'plangan materiallarni qayta ilmiy ishlash, manbalarga taqqoslash asosida yodgorlik xududida 4 bo'lim, 5 sinf, 42 oila, 188 turkum va 302 tur o'simlik turi o'sishi aniqlandi [1,2,3,4]. Yodgorlik xududida tapqalgan o'simliklarning tur, turkumlarni oilalar bo'yicha taqsimlanishidan tashqari, ularning hayotiy shakli va yashash muhit sharoiti (biotop) ham o'rganildi [5]. Bular haqidagi ma'lumotlar quyidagi jadvalda berilgan.

Yozyovon cho'llari davlat tabiat yodgorligi o'simliklari

№	Oila nomi	Flopa tarkibi		Hayotiy shakli					Yashash muhit sharoiti				
		Turkum	Tur	Bir yillik	Ko'pyillik	Chala buta	Buta	Dapaxt	Qumli	Sho'pxok	To'qay	Suv va botqoqlik	Begona o'tlar
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
1	Sho'padoshlar	25	57	42	1	6	6	2	24	46	4	-	5
2	Bug'doydoshlar	25	33	18	15	-	-	-	14	10	11	4	8
3	Qoqio'ldoshlar	20	29	16	12	1	-	-	9	10	15	1	13
4	Karamdoshlar	24	27	23	4	-	-	-	6	8	3	1	12
5	Burchoqdoshlar	9	17	5	7	3	2	-	6	2	8	-	8
6	Torondoshlar	3	13	4	3	-	6	-	8	1	3	3	2
7	Ziradoshlar	6	6	3	3	-	-	-	3	-	-	1	2
8	Govzabondoshlar	8	12	4	6	-	-	-	8	-	-	-	-
9	Ayiqtovondoshlar	6	9	4	4	-	1	-	8	2	2	3	-
10	Yalpizdoshlar	4	4	2	2	-	-	-	1	-	2	-	1
11	Zarpechakdoshlar	1	5	5	-	-	-	-	-	-	5	-	5
12	G'ijjakdoshlar	1	5	-	5	-	-	-	-	-	-	5	-
13	Ituzumdoshlar	4	6	3	1	-	2	-	1	2	4	-	4
14	Sigirquyruqdoshlar	3	8	3	2	-	-	-	-	-	-	-	4
15	Sutlamadoshlar	3	6	5	1	-	-	-	4	-	1	-	2
16	Yulg'yndoshlar	2	6	-	-	1	5	-	4	5	1	-	-
17	Gulhayridoshlar	3	3	3	4	-	-	-	-	-	1	-	3
18	Ro'yangyldoshlar	2	3	2	1	-	-	-	-	-	1	-	3
19	Shu'mg'iyadoshlar	2	5	2	3	-	-	-	4	1	2	-	3
20	Tuyatovondoshlar	5	5	2	3	-	1	-	4	2	-	-	1
21	Loladoshlar	3	4	-	4	-	-	-	4	2	2	-	-
22	Ko'knoridoshlar	2	2	2	-	-	-	-	2	-	-	-	-
23	Ra'nodoshlar	2	2	-	2	-	-	-	-	-	2	-	1
24	Yoronguldoshlar	1	3	-	-	-	-	-	-	-	3	3	-
25	Pechakdoshlar	2	4	-	3	-	1	-	1	2	1	-	1
26	Zubturmadoshlar	1	2	-	2	-	-	-	-	2	-	1	3

BIOLOGIYA

27	Uchchanoqdoshlar	1	1	1	-	-	-	-	-	1	-	-	-
28	Qizilbargdoshlar	1	2	-	2	-	-	-	-	-	2	-	-
29	Gultojxo'rozdoshlar	1	2	2	-	-	-	-	-	-	-	-	2
30	Chinniguldoshlar	3	3	2	1	-	-	-	-	-	-	-	2
31	Kendirdoshlar	1	1	-	1	-	-	-	-	1	1	1	-
32	Toldoshlar	2	3	-	-	-	-	3	-	-	3	-	-
33	Ko'g'adoshlar	1	2	-	2	-	-	-	-	-	-	2	-
34	Jiydoshlar	1	1	-	1	-	-	-	1	-	-	1	-
35	Qirqbo'g'imdoshlar	1	2	-	2	-	-	-	-	-	-	2	-
36	Hiloldoshlar	2	2	-	2	-	-	-	1	-	-	1	1
37	Nashadoshlar	1	1	1	-	-	-	-	-	-	-	-	1
38	Kovuldoshlar	1	1	-	1	-	-	-	-	-	-	-	-1
39	Qalambargdoshlar	1	1	-	1	-	-	-	-	-	-	1	1

Yodgorlik xududiida tapqalgan o'simlik turlarining hayotiy shakliga ko'ra 302 o'simlik turidan 115 turi bir va ikki yillik, 98 turi ko'p yillik, 10 turi chala buta, 24 turi buta, 5 turi daraxt o'simliklardan tarkib topganligi monitoring asosida aniqlandi. [5]. Yashash muhit (biotop) sharoitiga ko'ra yodgorlik xududiida tapqalgan o'simlik turlari monitoring o'tkazilganda olingan ma'lumotlarga ko'ra 302 o'simlik turidan 115 turi qumloqlarda, 94 turi sho'rxok yerlarda (sho'rlanish darajasi turlicha bo'lgan joylarda), 85 turi to'qayda, 22 turi suv o'tloq va botqoqliklarda, 84 turi begona o't sifatida o'sayotgani ma'lum bo'ldi. [5,6]. Shu'ningdek, ularning foydali xususiyatlariga ko'ra tahlil qilinganda 302 turdan 165 tasi em-xashak o'simliklari, 89 tur o'simlik efir moyli, shifobaxsh o'simliklar ekanligi, 28 turi tolali, 26 turi bo'yoqbop, 91 turi alkaloidli va glikozidli, 52 turi oziq-ovqat o'simliklari ekanligi monitoring o'tkazish va kuzatish asosida ma'lum bo'ldi [2,7].

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shu' narsa ma'lum bo'ldiki, yodgorlik xududi florasi boy, uning tarkibida barcha hayotiy shakllarga ega bo'lgan xilma-xil o'simlik turlari mavjud. Ular orasida turli maqsadlarda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan, landshaft (edifikatop, indikatop,) hosil qiluvchi turlar bilan birga, inson omili ta'sirida yo'qolish xavfi ostida (qandimning endem turlari, oq jangal, qush jiyda, selin, qizg'ish astragal, cherkez, quyonsuyak va boshqalar) turlari ham yo'q emas. Shu'ningdek, by yerda qumliklar (qumliklar yodgorlikning asosini tashkil qiladi) sho'rxok yerlar, botqoqli yerlar o'tloq va suvli ko'llar ham bop. Qo'riqxonalar tashkil qilish asosida yo'qolgan va yo'qolish xavfi ostida qolgan noyob, kamyob o'simliklarni qayta tiklash kelajak avlod uchun eng yaxshi tuhfa bo'lishi bilan birga, yoshlarni tabiat qo'piqchisi qilib tarbiyalashda ham alohida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'Pratov, Nabiev M.M. O'zbekiston yuksak o'simliklarning zamonaviy tizimi. Toshkent. 2007yil.
2. Meliboev S., Isroilov M., Isomiddinov S., Abdunazarov X., Tursuniv Sh. O'zbekiston florasida uchraydigan dorivor o'simliklar. Farg'ona. "Farg'ona" hashriyoti. 2018 y.
3. Hamidov G.X., Maxmudov M.X., Maxsudova R.S., Farg'ona vodiysining dorivor o'simliklari ulardan samarali foydalanish va muhofaza qilish. Farg'ona. "Farg'ona" hashriyoti. 2018 y.
4. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi". Toshkent. "Chinor ENK", 2019.
5. Prator O., Shamsuvalieva L., Sulaymonov E., Axunov X., Ibodov K., Maxmudov V. Botanika (morfoloqiya, anatomiya, sistematika, geobotanika). Toshkent. Ta'lim nashriyoti, 2010.
6. Usmonhodjaev A., Basitxonova E.I., Prator O.P., Djaborov A. O'zbekistonda o'sadigan shifobaxsh o'simliklarning etimologik zamonaviy ensiklopediyasi. Toshkent. "Yangi asr avlodi". 2014.
7. <http://eco.uz>.
8. <http://www.ipni.org/>
9. <http://eol.org/>.